


**Farg'ona  
viloyatining  
chakana savdo  
tovar aylanmasi  
(2018 yil  
yanvar-sentyabr)**


**Hududlar  
kesimida  
chakana savdo  
tovar aylanmasi  
hajmi  
(mlrd. so'm)**

Fargona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-Sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8198,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 839,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 16,6 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 6578,0 mlrd. so'mni o'sish sur'ati 3,2 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 781,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 foizga ortgan) tashkil etdi.



2017 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'qon, Margilon shaharlari hamda Uchko'prik,Fargona t,Toshloq t,Beshariq t tumanida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (% da)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,6 foizga o'sdi va 839,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,2 foiz ulushiga to'g'ri keladi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)  
(2018 yilning yanvar-sentyabr holatiga)**



*Hududlarda  
kichik  
tadbirkorlik  
sub`ektlarining  
respublika  
chakana savdo  
tovar  
aylanmasidagi  
ulushi (%da)*

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 6578,0 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 3,2 foizga o'sishga erishdi. viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,2 foizga teng kelmoqda.



2018 yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2250,6 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 foizga ko`paygan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2250,6</b>	<b>102,7</b>
<i>shaharlar</i>		
Farg'ona	7058,5	100,8
Qo'qon	3843,1	109,3
Quvasoy	2435,0	97,8
Marg'ilon	2781,6	104,6
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq	1763,6	101,8
Qo'shtepa	2313,5	100,5
Bag'dod	1428,4	101,7
Buvayda	1605,4	102,9
Beshariq	1399,1	104,4
Quva	1726,3	102,9
Uchko'prik	1089,9	104,2
Rishton	1403,2	99,8
So'x	1857,7	101,9
Toshloq	1234,1	103,7
O'zbekiston	955,3	103,0
Farg'ona t	2146,1	104,4
Dang'ara	1237,0	101,4
Furqat	1019,2	103,0
Yozyovon	3377,1	100,5

**Fargona  
viloyatining ulgurji  
savdo Tovar  
aylanmasi  
(2018 yil yanvar-  
sentabr)**

**hududlar kesimida  
ulgurji savdo tovar  
aylanmasining  
o`tgan yilga  
nisbatan o`zgarish  
sur`atlari (%da)**


Jadvaldan ko`rinib turibdiki, viloyatning deyarli barcha hududlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan. Boshqa hududlarga nisbatan ushbu ko`rsatkich Farg'ona shahri (7058,5 ming so`m), Qo'qon shahri (3843,1 ming so`m) va Yozyovon tumanida (3377,1 ming so`m) sezilarli darajada yuqori bo`lgan.

2018 yilning o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,3 foizni tashkil etib, 151,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 0,2 foizga o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 97,2 foiz ulushi kichik tadbirdorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2323,2 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 2,2 foizga oshgan.

Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`sish sur`atida kamayishi kuzatildi: Farg'ona tumani-68,3 %, Bag'dod tumani – 48,4 %, Qoqon shahar -25,6 %, Qo'shtepa tumani-23,2%.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 6,5 foizga oshdi va 1700,9 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 73,2 foizni tashkil qildi.





**Nashr uchun**

**mas'ul:**

**M.Turg'unova**

**Tel: 71 230-87-18**